O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
YANGIQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

QARORI

Yangiqo’rg’on shaharchasi Mustaqillik ko’chasi, 1 uy. 161200 Tel: (69)63-21-051

2022 - yil 30 - sentabr 544-6-90-Q/22 Yangiqo‘rg‘on tuman hokimligi

Qabristonlarda go‘r qazish hamda marosim xizmatlari bo‘yicha go‘rkovlar va marosim xizmatlarini bajaruvchi xodimlar ta’minoti uchun aholi tomonidan ko‘rsatiladigan pullik xizmatlar ta’rifini belgilash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 martdagi 59-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish qoidalari”ning 42-bandi, 2011 yil 4 apreldagi 101-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Dafn etish joylarini saqlash, ulardan foydalanish va qabr usti yodgorliklarini o‘rnatish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 8, 14-bandlariga asosan, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Yangiqo‘rg‘on tuman obodonlashtirish boshqarmasining 2022 yil 15 avgustdagi taklifi hamda Yangiqo‘rg‘on tuman hokimligi Moliya bo‘limining 2022 yil 16 avgustdagi xulosasi ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Yangiqo‘rg‘on tumanidagi qabristonlarda go‘r qazish bo‘yicha go‘rkovlar ta’minoti uchun aholi tomonidan ko‘rsatiladigan pullik xizmatlar ta’rifi miqdori quyidagicha etib belgilansin:

9 yoshgacha bo‘lgan bir nafar bola uchun bazaviy hisoblash miqdorining 15 foizi;

9 yosh va undan katta bo‘lgan bir nafar shaxs uchun bazaviy hisoblash miqdorining 30 foizi.

3. Yangiqo‘rg‘on tumanidagi qabristonlarda go‘r qazish bo‘yicha go‘rkovlar ta’minoti uchun aholi tomonidan ko‘rsatiladigan pullik xizmatlar ta’rifi miqdori quyidagicha etib belgilansin:

4. Barcha ishlab turgan qabristonlarda dafn etish uchun joy (uchastka) bepul ajratiladi.

5. Yangiqo‘rg‘on tuman obodonlashtirish boshqarmasi:

qabristonlarda go‘r qazish bo‘yicha go‘rkovlar ta’minoti hamda marosim xizmatlari

bo‘yicha marosim xizmatlarini bajaruvchi xodimlar ta’minoti uchun aholi tomonidan ko‘rsatiladigan pulli xizmatlar ta’rifi miqdoriga qat’iy rioya etilishini;

ushbu mablag‘lar tegishli ravishda go‘rkovlar va marosim xizmatlarini bajaruvchi xodimlar ta’minoti uchun ishlatilishini;

mazkur pullik xizmatlar ta’rifi miqdorini aholiga yetkazilishini va to‘g‘ri tushuntirilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror “Yangiqo‘rg‘on xaqiqati” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Yangiqo‘rg‘on tuman hokimligining Axborot xizmatlari mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida rasman e’lon qilish va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

9. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Yangiqo‘rg‘on tuman hokimining 2012 yil 16 dekabrdagi 488-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb xisoblansin.

10. Mazkur qarordan norozi shaxslar sudga yoki yuqori turuvchi organga shikoyat qilish huquqiga ega.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari M.Sotiboldiev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Najmiddinov**